

## THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER

Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Master's degree from Tashkent State University of Uzbek Language and Literature  
named after Alisher Navoi

**Annotation:** The article analyzes the image of the creature in the works of Togay Murad, a brilliant representative of modern Uzbek literature.

**Keywords:** Modern Uzbek literature, Uncle Murad, the image of a creature, the work "Horse-riding sky".

## TO'G'AY MUROD IJODIDA JONZOT OBRAZI

Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakili Tog'ay Murod asarlaridagi jonzot obrozi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy o'zbek adabiyoti, Tog'ay Murod, jonzot obrazi, "Ot kishnagan osmon" asari.

Har qanday badiiy asarni tushunish uch asos ustiga quriladi: yozuvchi, o'quvchi, matn. San'at asari bilan o'quvchi o'rtasidagi to'siq bartaraf qilinganda, uning estetik jozibasi anglab yetilgandagina, uning axloqiy qiyofasi shakllanishiga xizmat qiladi. Bu yo'lda o'quvchiga matnni to'liq anglamaslik holati jiddiy to'siq bo'lib turadi. Bu paytda tahlil qiluvchi odamning mahorati ahamiyatli bo'ladi.

Hayotiy ko'lamning kengligi, murakkab insoniy taqdirlar, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar voqealar asnosida idrok etilishi lozim bo'lgan asarlarda tahlil ham o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Asarlarda personajlar ozdir-ko'pdir voqealar qo'ynida tasvirlanadi va ularning tabiatlari hodisalar tasviri asnosida namoyon bo'la boradi.

Badiiy asar qahramonlari o'zining tasvir va talqin darajasi, voqealardagi ishtiroki, asarda ko'taradigan "yuki"ga ko'ra personaj,obraz, tip degan darajalarga ega bo'ladi. <sup>1</sup>

<sup>1</sup> S.Ahmedov va boshq. Adabiyot- T.: Sharq, 2007.-346-bet

Obrazlar turli xil bo'ladi. Biz siz bilan ramziy obrazlarga to'xtalamiz. Ramziy obrazlar-narsalar, o'simliklar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarni umumlashtiruvchi obrazlardir. Badiiy adabiyotda hayvonlar obrazi keng miqyosda uchrashi hech birimizga sir emas. Hayvonot dunyosi ba'zan odamlarga do'st qilib tasvirlansa, ba'zida aksi. Ko'p hikoyalarda inson va hayvon o'rtasidagi do'stlik aks etgan. Shu bilan bir qatorda odamlarning o'sha birgina hayvonchalik bir-biriga mehr ko'rsatmasligi yozuvchi tomonidan tasvirlangan. Hikoyada hayvonlar qatnashadi va ularning qiyofasi orqali insonlarga xos xususiyatlar beriladi. Xususan Tog'ay Murod asarlarida jonzot obraziga ko'p murojaat qilingan. Yozuvchilar hamda shoirlar yuksak saviyadagi asarlari bilan adabiyotimizni boyitadilar. Yozuvchi Tog'ay Murod zamonaviy o'zbek adabiyotining tili boy, ixcham, puxta va mazmundor asarlar muallifi sifatida e'tibor qozongan. Uning "Yulduzlar mangu yonadi", "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Momo-Yer qo'shig'i" kabi qissaalari, "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlari nafaqat o'zbek kitobxonlarining, qo'shni qardosh xalqlarning ham sevimli asarlariga aylanib qoldi.

O'zbek adabiyotshunosligida obraz masalasi keng o'rganilgan. Biz asosan zamonaviy qissalarda, obraz masalasiga alohida e'tibor qaratamiz. Bu obrazalar inson va jonzot munosabatlarini yoritishda xizmat qiladi. Xususan, o'zbek adabiyotida, Tog'ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Nurali Qobul, Normurod Norqobilov ijodlarida inson va tabiat munosabati parallel va kontrast holda tasvirlanadi. Bu ikki holtni, vaziyatni, o'rganish kuzatish, tahlil qilish yangi fikrlarga yangi mulohazalarga imkon yaratadi. Boisi yaratilgan uch borliq hodisasida ya'ni odomzod, jonzot, nabotot aro mushtaraklik bor. Aynan nasriy asarlarda uning talqinini kuzatish bizni nafaqt muallif iste'dodi va mahorati bilan tanishtirish balki mana shu obraz mohiyatini teranroq yoritish imkonini beradi. Xususan Tog'ay Murod asarlarida inson va tabiat mushtarakligi kuzatiladi. Tog'ay Murod asarlarida it, bo'ri obrazlari orqali vafo, sadoqat, jasorat kabi holatlarning ifodasi, ruhiyat manzaralarining tiniqligi ko'zga tashlanadi. Aynan ot obrazi orqali inson va borliq hodisalari aro mushtaraklik, uyg'unlik maslakdoshlik sifatleri borligini anglash qiyin emas.

Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" asarida xalqimizning milliyligi, qadriyati bo'lmish ko'pkari, ya'ni uloq sporti haqida yozgan. Asar bosh qahramoni – tarlon ot kitobxon qalbiga qadrdan bir odamday, tanishi, do'stiday kirib boradi.

Qissada chavandoz va hamqishloqlarining adolat yo'lidagi kurashlari o'zining g'oyat ishonarli tasvirini topgan. Masalan, bir yili qishloqqa otlarni go'shtga topshirish to'g'risida buyruq keladi. Tabiiyki buyruq qishloq ahlini sergak torttiradi. Lekin hech kim yurak yutib buyruqqa qarshi borolmaydi. Shunda Ziyodullaga o'xshagan chavandozlar yani adolatni izlashga to'shadilar. Bunday noxush xabarni eshitgan Ziyodulla chavandoz shunday deydi: «Kuntug'mish»ni go'shtga topshirib bo'ladimi?

«Alpomish»ni go'sht qilib bo'ladimi?»<sup>2</sup>. Tog'ay Murod qissalari adabiyotimizga Surxon vodiysining o'ziga xos nafasini olib kirdi, mehnatsevar, kamtar va tanti chorvadorlar, bog'bonlarga nisbatan dilimizda samimiy mehr uyg'otdi. "Ot kishnagan oqshom" qissasi "Alpomish" dostoni an'analarini eslatadigan xalqchil ruh bilan sug'orilgan. Tog'ay Murodning o'zi ham Alpomish va Barchinlarni bergan go'zal vodiylar, bepoyon yaylovlarda o'sganligi uning so'z boyliklaridan, yozuvchilik uslubi va o'ziga xos ovozidan sezilib turadi. Nasriy asarga she'riy jarang va ko'tarinki ruh bag'ishlay olish qobiliyati yosh adibning qalamiga xos eng yaxshi fazilatlarandir.<sup>3</sup>

"Ot kishnagan oqshom" asarida folklorda uchraydigan qahramon va obrazlarga duch kelamiz. Tog'ay Murodning ot obrazini yaratishda folklordan umumli foydalanganligi qahramon tilidan aytilgan: «Tarlop ot emas, Jumantbulbul kuylagan «Kuntug'mish» Fozil Yo'ldosh kuylagan «Alpomish» so'zlaridan ham anglashilib turibdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yozuvchi tanlagan qahramonlar oddiy, chapani o'zbek qiyofasini eslatadi. Shu bois asarni hech qiynalmay tushunamiz, ko'ngil yaqinligini sezamiz. Asarda ulug'langan soddalik, samimiylik, to'g'rilik, ochiqko'ngillilik xislatlari kitobxonning berk ko'zlarini ochadi. Zero, "Yulduzlar mangu yonadi" asarida Bo'ri polvon tomonidan ta'kidlangan ushbu fikrlar har bir o'zbek farzandi uchun shior bo'lib qolmog'i lozim: "Xalq nimasi bilan xalq? O'zining urf-odatlarini bilan xalq!". Tog'ay Murod ijodi bilan tanishganimizda, unda milliy iftixor nafasi ufurib turganligini his etamiz.

### Foydalangan adabiyotlar

1. S.Ahmedov va boshq. Adabiyot- T.: Sharq, 2007.
2. To'gay Murod. Ot kishnagan oqshom. -T.: 1994. –B. 138
3. Saviya.uz. sayti.

<sup>2</sup> To'gay Murod. Ot kishnagan oqshom. -T.: 1994. –B. 138

<sup>3</sup> <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/togay-murodning-tugma-istedodi/>